XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 19 - aprel VI-36-81-3-52-K/22 Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tumanidagi “Oltinko‘l” va “Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida

Yurtimiz azal azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko‘z qorachig‘idek asrab avaylashda uning o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy iqtisodiy, balki, siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularni nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi 48-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 11 va 31-moddalariga muvofiq, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2022 yil 9 martdagi 153-sonli xati hamda xalq deputatlari tuman Kengashining qonuniylik, huquq targ‘ibot va fuqarolar xafsizligini ta’minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining yig‘ilish bayonini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 11 va 31-moddalariga muvofiq, tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining “Oltinko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi A.Qodiriy, Bekto‘pi (S.Raximov), O‘zbekiston, Toshkent, Oybek va Sh.Rashidov ko‘chalaridagi 279 ta xonadon,

1359 nafar aholi, 21,5 ga yer maydonini “Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga o‘tkazish hamda ularning chagaralarini belgilash va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi 2022 yil 9 martdagi 153-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining “Oltinko‘l” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan uzoq masofada joylashganligi “A.Qodiriy” ko‘chasidan 488 nafar aholi, 87 ta xonadonni, “Bekto‘pi” (S.Raximov) ko‘chasidan 318 nafar aholi, 49 ta xonadonni, “O‘zbekiston” ko‘chasidan 246 nafar aholi, 60 ta xonadonni, “Toshkent” ko‘chasidan 126 nafar aholi, 34 ta xonadonni, “Oybek” ko‘chasidan 152 nafar aholi, 40 ta xonadonni hamda “Sh.Rashidov” ko‘chasidan 29 nafar aholi, 9 ta xonadonlarni, tumandagi **“Toshkent”** mahalla fuqarolar yig‘iniga yaqin joyda joylashganligini hisobga olib, ushbu ko‘chalarni **“Toshkent”** mahalla fuqarolar yig‘iniga qo‘shib, “Toshkent” mahalla fuqarolar yig‘inida **3915 nafar** aholi, **684 ta** xonadon tashkil etish taklifi maqullansin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularni nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, moliya bo‘limi, adliya bo‘limi boshliqlariga, o‘zgartirish kiritilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha tegishli hujjatlarni “Geografik obyektlarga nom berish va ularni nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha toponomik viloyat komissiyasi”ga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Paxtakor tumani qurilish bo‘limi, obodonlashtirish boshqarmasi, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, moliya bo‘limi, statistika bo‘limi, aholi bandligiga ko‘maklashish markazi, kadastr agentligiga, bir oy muddatda chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarini me’yoriy hujjatlarini belgilangan tartibda o‘zgartirish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov)ga, tuman hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi fuqarolarni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov) va “Paxtakor hayoti” gazetasi (M.To‘xtasheva)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Salomov zimmalariga yuklansin.

Сессия раиси **Ш.Каримов**